



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 376 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmamatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
<i>Baltayeva Xalima Toraboyevna</i>	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
<i>Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
<i>Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna</i>	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
<i>Khamidova Shabnam Gulakhmadovna</i>	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
<i>Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi</i>	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
<i>Ismailova Dildora Qudratullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
<i>Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
<i>Mirzayeva Kamola Ikrom qizi</i>	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
<i>Shermatova Nazokat Safarovna</i>	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
<i>Zulayxo Mamajanova</i>	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
<i>Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна</i>	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
<i>Baxtiyor Odilovich Saidov</i>	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
<i>Икрамова Мунира Маруфжановна</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
<i>Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi</i>	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
<i>Iskandarova Risolat Ravshanbekovna</i>	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
<i>Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich</i>	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
<i>Boboyarova Nilufar Saydullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
<i>Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna</i>	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
<i>Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi</i>	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
<i>Adilov Baxadir Tanatarovich</i>	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inkluziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	

PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNING MAZMUNI, TARKIBIY KOMPONENTLARI VA FUNKSIYALARI

Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi

Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0004-6277-5407>

Annotatsiya: Maqolada pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari tahlil qilinadi. Deontologik kompetentlikning mohiyati ochib beriladi, uning asosiy tarkibiy qismlari (kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli va refleksiv) asoslab beriladi. Shuningdek, deontologik kompetentlikning ta'lim jarayonidagi asosiy funksiyalari aniqlanadi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi va empirik natijalar tahlili keltirilgan. Tadqiqot natijalari deontologik kompetentlikning tizimli tushunilishi va uni rivojlantirish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: deontologik kompetentlik, mazmun, tarkibiy komponentlar, funksiyalar, pedagogika ta'limi, bo'lajak pedagog, kasbiy etika.

Abstract: The article analyzes the content, structural components, and functions of deontological competence among students of pedagogical education programs. The essence of deontological competence is revealed, and its main structural components-cognitive, motivational-value, activity-based, and reflective-are substantiated. The main functions of deontological competence in the educational process are also identified. A review of the relevant literature, research methodology, and analysis of empirical findings are presented. The research findings contribute to a systematic understanding of deontological competence and the identification of effective ways to develop it.

Key words: deontological competence, content, structural components, functions, pedagogical education, future teacher, professional ethics.

Аннотация: В статье анализируются содержание, структурные компоненты и функции деонтологической компетентности студентов педагогических образовательных направлений. Раскрывается сущность деонтологической компетентности, обосновываются её основные структурные компоненты: когнитивный, мотивационно-ценностный, деятельностный и рефлексивный. Также определяются основные функции деонтологической компетентности в образовательном процессе. Представлены обзор литературы по данной проблематике, методология исследования и анализ эмпирических результатов. Результаты исследования способствуют системному пониманию деонтологической компетентности и определению путей её развития.

Ключевые слова: деонтологическая компетентность, содержание, структурные компоненты, функции, педагогическое образование, будущий педагог, профессиональная этика.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Zamonaviy pedagogdan faqat o'z fanini chuqur bilish, ta'lim berish metodlarini egalash yoki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish emas, balki kasbiy faoliyatini yuksak axloqiy-me'yoriy tamoyillar asosida tashkil eta olish ham talab etiladi. Chunki o'qituvchining har bir so'zi, munosabati, qarori va xatti-harakati ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga, uning o'ziga bo'lgan ishonchiga va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni anglashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda pedagog kasbining mohiyatini belgilovchi muhim jihatlardan biri uning kasbiy burch va mas'uliyatni anglash darajasi, ya'ni deontologik tayyorgarligidir.

Pedagogik faoliyat inson bilan ishlashga asoslanganligi sababli unda kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan bir qatorda axloqiy mas'uliyat ham alohida o'rin tutadi. O'qituvchi ta'lim jarayonida turli xarakter, dunyoqarash, qobiliyat va ehtiyojga ega bo'lgan shaxslar bilan muloqot qiladi. Bunday sharoitda pedagogning vaziri-



yatni to'g'ri baholashi, adolatli qaror qabul qilishi, ta'lim oluvchining shaxsiyatini hurmat qilishi, pedagogik takti saqlashi va kasbiy chegaralarni anglay olishi uning deontologik kompetentligini belgilovchi asosiy mezonlarga aylanadi. Demak, deontologik kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatida "nima qilish kerak?" degan savolga javob topish bilangina cheklanmay, "qanday qilib to'g'ri, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan maqbul tarzda harakat qilish kerak?" degan masalani ham qamrab oladi.

Pedagogika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelgusida ta'lim va tarbiya jarayonining bevosita tashkilotchilariga aylanishlarini hisobga olsak, ularda deontologik kompetentlikni shakllantirish oliy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagog o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishi, pedagogik burch va mas'uliyatni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishi, kasbiy axloq me'yorlariga amal qilishi hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda insonparvarlik va adolat tamoyillariga tayangan holda qaror qabul qila olishi zarur. Bu esa deontologik kompetentlikni shunchaki nazariy bilim sifatida emas, balki bilim, qadriyat, munosabat, amaliy xatti-harakat va refleksiyaning o'zaro birligi sifatida shakllantirishni taqozo etadi.

Deontologik kompetentlikning mazmunini belgilashda uning tarkibiy komponentlarini aniq ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetentlik tarkibida kasbiy-deontologik bilimlar, axloqiy-qadriyatli munosabat, kommunikativ madaniyat, pedagogik xulq-atvor va refleksiv qobiliyat kabi jihatlar o'zaro bog'langan holda namoyon bo'ladi. Talaba pedagogik faoliyatning axloqiy me'yorlarini bilishi bilan bir qatorda, ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llay olishi, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, o'quvchi manfaatlarini hisobga olishi va kasbiy faoliyatining oqibatlarini oldindan baholay olishi lozim. Aynan mana shu jihatlar deontologik kompetentlikni boshqa kasbiy kompetensiyalardan ajratib turuvchi muhim xususiyatlarni tashkil etadi.

Bugungi pedagogik ta'lim oldida turgan vazifalardan biri ham bo'lajak o'qituvchini nafaqat bilimli va metodik jihatdan kompetent, balki ma'naviy yetuk, mas'uliyatli va kasbiy odob me'yorlariga qat'iy amal qiladigan mutaxassis sifatida tayyorlashdan iborat. Zero, pedagogning kasbiy mahorati uning o'quvchini qanday o'qitishida namoyon bo'lsa, deontologik madaniyati unga qanday munosabatda bo'lishida aks etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida deontologik kompetentlikni maqsadli shakllantirish kelajakdagi pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikni shakllantirish masalasi bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, axloqiy mas'uliyati, pedagogik odobi, kasbiy madaniyati va ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan samarali munosabat o'rnatish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Mazkur muammoning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishda pedagogik deontologiya, kasbiy etika, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar hamda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvga oid tadqiqotlar muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

O. Musurmonovning "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" asarida yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish va shaxsning ijtimoiy-ma'naviy kamolotini ta'minlash masalalari yoritilgan^[1]. Bo'lajak pedagoglarda deontologik kompetentlikning qadriyatli-axloqiy asoslarini shakllantirish, kasbiy faoliyatda insonparvarlik, mas'uliyat, halollik va pedagogik odob tamoyillarini qaror toptirish zarurligini asoslash imkonini beradi.

N. Egamberdiyevaning "Ijtimoiy pedagogika" asarida shaxsning ijtimoiylashuvi, pedagogik faoliyatning ijtimoiy mohiyati, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga ta'sir ko'rsatishning pedagogik asoslari yoritilgan. Yondashuv deontologik kompetentlikni pedagogning faqat axloqiy me'yorlarni bilishi bilan cheklab qo'ymasdan, balki turli ijtimoiy vaziyatlarda kasbiy mas'uliyat bilan harakat qila olish, o'quvchi va hamkasblar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish hamda pedagogik vaziyatlarni maqbul hal etish qobiliyati sifatida qarash imkonini beradi^[2].

A. Xoliqovning "Kasbiy etika va o'qituvchi madaniyati" asari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-axloqiy tayyorgarligini tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega. Unda pedagogik faoliyatda kasbiy etika, o'qituvchi madaniyati, muomala odobi, pedagogik mas'uliyat va kasbiy xulq-atvor masalalariga e'tibor qaratilgan^[3].

M. Quronovning "Milliy tarbiya" asarida tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va milliy tarbiya tamoyillarining ahamiyati ochib berilgan^[4].

N. M. Borytkoning "Педагогическая деонтология" asarida pedagogik faoliyatning axloqiy va me'yoriy asoslari, pedagogning kasbiy burchi, mas'uliyati hamda kasbiy xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar masalasi markaziy o'rin egallaydi^[5].

I. A. Kolesnikovning "Педагогическая деонтология" asarida pedagogning kasbiy faoliyatidagi axloqiy majburiyatlari, pedagogik munosabatlarning me'yoriy jihatlari va o'qituvchi shaxsga qo'yiladigan kasbiy-axloqiy talablar masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu qarashlar deontologik kompetentlikning tarkibida normativ, axloqiy, kommunikativ va refleksiv jihatlarni ajratib ko'rsatish uchun asos yaratadi^[6].



M. Qurbonovning "Milliy qadriyatlar asosida tarbiya" asarida tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan [7].

E. N. Shiyanovning "Личностный подход в педагогике" asarida ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari ochib beriladi. Mazkur yondashuv pedagogning o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, uning individual xususiyatlarini hisobga olishi va pedagogik munosabatlarni subyekt-subyekt tamoyili asosida tashkil etishini nazarda tutadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir ilmiy manbalar deontologik kompetentlik kasbiy burch va mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar, pedagogik me'yorlarga rioya qilish, kommunikativ madaniyat, pedagogik takt, shaxsga hurmat va refleksiv faoliyatning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadigan kompleks kasbiy sifatdir. Mavjud tadqiqotlarda ushbu jihatlarining ayrimlari alohida o'rganilgan bo'lsa-da, pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning yaxlit mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalarini o'zaro bog'liqlikda tizimlashtirish masalasi alohida ilmiy-metodik yondashuvni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikni shakllantirish masalasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. Uning mohiyati pedagogik faoliyat jarayonida kasbiy burch, axloqiy mas'uliyat, insonparvarlik, adolat, pedagogik takt va kasbiy me'yorlarga amal qilishning yagona tizim sifatida qaror topishi bilan belgilanadi. Shu sababli deontologik kompetentlikni faqat pedagogik etika qoidalarini bilish bilan cheklash mazkur tushunchaning mazmunini toraytirib yuboradi.

Deontologik kompetentlikning mazmunini aniqlashda uning bir-biri bilan uzviy bog'langan motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ, xulq-atvor va refleksiv komponentlari ajratib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogik kasbiga nisbatan ijobiy munosabat, kasbiy burchni anglash, pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunish va axloqiy qadriyatlarga amal qilishga ichki ehtiyojning mavjudligini ifodalaydi. Ushbu komponent shakllanmagan sharoitda talabaning deontologik me'yorlarga amal qilishi tashqi talab yoki nazoratga bog'lanib qolishi mumkin.

Kognitiv komponent esa bo'lajak pedagogning kasbiy etika, pedagogik deontologiya, kasbiy burch, mas'uliyat, pedagogik takt, pedagogik munosabatlar va kasbiy xulq-atvor me'yorlariga oid bilimlarini qamrab oladi. Biroq nazariy bilimlarning mavjudligi deontologik kompetentlikning to'liq shakllanganligini anglatmaydi. Talaba egallagan bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llay olishi, muayyan vaziyatning axloqiy jihatlarini baholashi va maqbul qaror qabul qilishi zarur. Shu jihatdan kognitiv komponent deontologik kompetentlikning amaliy komponentlari uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Kommunikativ komponent pedagogik faoliyatning insonlararo munosabatlarga asoslanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va boshqa ta'lim subyektlari bilan muloqot jarayonida hurmat, xushmuomalalik, bag'rikenglik va pedagogik takt tamoyillariga amal qilishi lozim. Ayniqsa, pedagogik nizolarni konstruktiv hal etish, o'quvchining shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish, uning fikrini tinglash va individual xususiyatlarini hisobga olish deontologik kompetentlikning amaliy namoyon bo'lish shakllaridan biridir.

Xulq-atvor komponenti deontologik bilim va qadriyatlarning bevosita pedagogik faoliyatdagi xatti-harakatlarga aylanishini ifodalaydi. Bunda bo'lajak pedagogning kasbiy intizomi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, pedagogik sirni saqlashi, adolatli baholashi, kasbiy chegaralarga rioya qilishi va turli pedagogik vaziyatlarda axloqiy jihatdan maqbul qarorlar qabul qilishi muhimdir. Demak, deontologik kompetentlikning haqiqiy darajasi talabaning nimani bilishi bilangina emas, balki bilgan me'yorlarini amaliy faoliyatida qanday qo'llashi bilan ham belgilanadi.

Refleksiv komponent esa pedagogning o'z kasbiy faoliyati, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qila olishi bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan vaziyatni qayta ko'rib chiqish, o'z xatti-harakatining boshqa shaxsga ta'sirini baholash, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga intilish deontologik yetuklikning muhim belgilaridan hisoblanadi. Shu sababli refleksiya bo'lajak o'qituvchining deontologik kompetentligini barqaror rivojlantiruvchi ichki mexanizm sifatida qaralishi mumkin. Deontologik kompetentlikning tarkibiy komponentlari alohida-alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat ko'rsatadi. Masalan, pedagogik burchni anglash axloqiy qadriyatlar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, u formal xarakterga ega bo'lishi; tegishli bilimlar amaliy ko'nikmalar bilan birikmasa, real pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llanilmasligi; kommunikativ qobiliyat refleksiya bilan uyg'unlashmasa, pedagog o'z muloqotidagi kamchiliklarni anglay olmasligi mumkin. Shuning uchun deontologik kompetentlikni shakllantirish jarayonida uning barcha komponentlarini kompleks rivojlantirish zarur.



Deontologik kompetentlikning pedagogik faoliyatdagi funksiyalarini ham mazkur komponentlar bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish mumkin. U, avvalo, me'yoriy-regulyativ funksiya orqali pedagogning kasbiy xatti-harakatlarini tartibga soladi; aksiologik funksiya orqali kasbiy va umuminsoniy qadriyatlarni faoliyat mezoniga aylantiradi; kommunikativ funksiya orqali pedagogik munosabatlarning samarali va axloqiy asosda tashkil etilishini ta'minlaydi; tarbiyaviy funksiya orqali o'qituvchining shaxsiy namunasi vositasida o'quvchilarda axloqiy sifatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi; refleksiv funksiya esa pedagogning o'z faoliyatini baholashi va takomillashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida pedagogika ta'lim yo'nalishi 2–4-kurs talabarlari tanlandi. Tadqiqot predmeti deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari deb belgilandi. Diagnostika jarayonida deontologik kompetentlikning har bir komponenti alohida baholandi.

Tadqiqot natijalari pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va funksiyalarini aniq belgilashga imkon berdi. Deontologik kompetentlikning mazmuni pedagogning kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlar, kasbiy burch, majburiyat va javobgarlikni chuqur anglash, ularni shaxsiy e'tiqodga aylantirish hamda amaliy faoliyatda izchil namoyon etishdan iborat. U nafaqat bilish, balki his qilish, qabul qilish va harakat qilish birligini talab etadi.

Deontologik kompetentlikning to'rt asosiy tarkibiy komponenti aniqlandi. Kognitiv komponent pedagogik deontologiya me'yorlari, kasbiy etika qoidalari, o'qituvchining huquq va majburiyatlarini bilishni o'z ichiga oladi. Motivatsion-qadriyatli komponent ichki motivatsiya, kasbiy qadriyatlar va axloqiy e'tiqodni qamrab oladi. Faoliyatli komponent o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan munosabatda deontologik me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini bildiradi. Refleksiv komponent esa o'z axloqiy xulq-atvorini baholash, tahlil qilish va tuzatish qobiliyatini ifodalaydi.

Funksional tahlil shuni ko'rsatdiki, deontologik kompetentlik bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. U tartibga soluvchi funksiya orqali pedagogning xatti-harakatlarini axloqiy me'yorlar asosida yo'naltiradi. Baholovchi funksiya o'z va boshqalarning xulq-atvorini axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi. Rivojlantiruvchi funksiya shaxsiy va kasbiy kamolotni ta'minlaydi. Oldini oluvchi funksiya esa axloqiy xatolarning oldini olishga xizmat qiladi. Integrativ funksiya esa deontologik kompetentlikni boshqa kasbiy kompetentliklar bilan bog'lab, yagona kasbiy madaniyatni shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni pedagogning kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlar, majburiyat va javobgarlikni anglash hamda ularga rioya qilish qobiliyatidan iborat. Uning tarkibiy tuzilmasi kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli va refleksiv komponentlardan tashkil topadi. Har bir komponent o'zaro bog'liq holda deontologik kompetentlikning yaxlit tizimini tashkil etadi. Deontologik kompetentlik tartibga soluvchi, baholovchi, rivojlantiruvchi, oldini oluvchi va integrativ funksiyalarni bajaradi. Ushbu funksiyalar pedagogning kasbiy faoliyatini axloqiy jihatdan yo'naltirish, shaxsiy kamolotini ta'minlash va kasbiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalarini aniq belgilash uni maqsadli rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Kelgusida har bir komponentni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik tizimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
2. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
3. Xoliqov A. Kasbiy etika va o'qituvchi madaniyati. – Toshkent, 2012. – 160 b.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 240 b.
5. Борытко Н. М. Педагогическая деонтология. – Волгоград, 2004. – 120 с.
6. Колесникова И. А. Педагогическая деонтология. – Москва, 2005. – 256 с.
7. Qurbonov M. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya. – Toshkent, 2005. – 144 b.
8. Шиянов Е. Н. Личностный подход в педагогике. – Москва, 1999. – 224 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.